

SHAXS IJTIMOIYLASHUVIDA MUNOSABAT PSIXOLOGIYASINING ILMIY NAZARIY AHAMIYATI

Kamolova Mashhura Otabek qizi

Navoiy davlat pedagogika instituti San'atshunoslik fakulteti

Ta'lim muassasalarining boshqaruvi ta'lim yo'nalishi

ANNOTATSIYA Mazkur maqolada shaxslararo munosabatlarni o'rGANISH psixologiya fanida eng dolzarb muammolardan biri ekanligi, muloqot va u orqali o'zaro munosabatlar odamlar orasida umumiylit, o'xshashlik, uyg'unlik kabi sifatlar paydo bo'lishiga olib kelishi hamda inson psixik dunyosiga ta'siri masalalari to'risida bir necha chet el psixolog olimlari tomonidan tadqiqot ishlari olib borganliklari masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Shaxslararo munosabat, intropsixologik kategoriya, insoniy munosabatlar, umumiylit, o'xshashlik, uyg'unlik, ijtimoiy-psixologik hodisa, ontogenetika, otaona va farzand, perceptiv muloqot, san'at, shaxs.

KIRISH

Insoniy munosabatlar shunday o'zaro ta'sir jarayonlariki, unda shaxslararo munosabatlar shakllanadi va namoyon bo'ladi. Shaxslararo munosabatlar deganda aslida odamlar orasida amalga oshadigan o'zaro munosabat, muloqot va muomala jarayoni tushuniladi. Shaxslararo munosabatlarni o'rGANISH psixologiya fanida eng dolzarb muammolardan hisoblanadi. Chunki, inson shaxsining eng nufuzli va yetakchi faoliyatlaridan biri bo'lgan muloqot va u orqali o'zaro munosabatlar odamlar orasida umumiylit, o'xshashlik, uyg'unlik kabi sifatlar paydo bo'lishiga olib keladi. Ayniqsa, oila muhitida shaxslararo munosabatlarning, chunonchi, ota-onasi va farzand orasidagi munosabatlarning o'ziga xos tomonlari shaxsning hayoti, faoliyatining samarasi va mazmuniga bevosita ta'sir etadi. Shunday ekan, insonlar orasida amalga oshadigan

shaxslararo munosabatlar, ularning turli psixologik xususiyatlarini o'rganish masalasi ijtimoiy psixologiya fanida muhim dolzarb muammolardan hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODIKASI

Muomala shaxslararo munosabatlarning shunday ko'rinishidirki, uning yordamida odamlar o'zaro psixik jihatdan aloqaga kirishadilar, o'zaro axborot almashinadilar, ta'sir o'tkazadilar, ta'sirlanadilar, idrok etadilar, tushunish va baholash jarayonlarini kechiradilar. Shuning uchun muomala ijtimoiy-psixologik hodisa, ijtimoiy kategoriya sifatida ijtimoiy turmushning barcha sohalarida bevosita ishtirok etib, hamkorlik faoliyatining moddiy, ma'naviy, emotsiyonal, kognitiv, motivatsion, reguliyativ qirralarini aks ettiruvchi ob'yektiv va sub'yektiv ehtiyoj sifatida vujudga keladi, ijtimoiylashuvning asosiy omili, negizi vazifasini bajaradi. Adabiyotlar tahlili. Shaxslararo munosabatlarda muomalaning inson psixik dunyosiga ta'siri masalalarini psixologlardan L.S. Vigotskiy, S.L. Rubinshteyn, A.N. Leontev, B.G. Ananev, A.V. Zaporojets, A.A. Bodalev, B.F. Lomov, A.A. Leontev, M.I. Lisina tadqiqot ishlarini olib borganlar (39, 58, 103). L.S. Vigotskiy bola shaxsi ruhiy dunyosi rivoji va taraqqiyotida muomalaning ahamiyati borasida «Bola shaxsiy faolligini namoyon bo'lishining asosiy yo'li kattalar bilan muomalasi hisoblanadi. Uning tashqi olamga munosabati hamisha boshqa odam orqali munosabat bildirishidir» (58, 38) deb ta'kidlaydi. L.S. Vigotskiy fikricha, ontogenetika genetik jihatdan birlamchi o'zaro ta'sir bahs, dialogdir; ikkilamchi esa individning ongi, ruhiy jarayonlarining individualligidir:

«Biz madaniy rivojlanishning umumiy genetik qonunini mana shunday shaklda ifodalashimiz mumkin: bolaning madaniy o'sishida har qanday funksiya baholanishi uchun ikki marta, ikki xil rejada paydo bo'ladi, avval ijtimoiy, keyin psixologik, shuningdek, shaxslararo interpsixologik kategoriya sifatida so'ng bola ichki dunyosida intropsixologik kategoriya tariqasida». L.S. Vigotskiy shuningdek, shaxslararo munosabatlarda asosiy qurol va vosita muomala jarayoni ekanligini uqtiradi. Uning fikricha, shaxslararo munosabatlarda dastavval muomala asosiy vosita, so'ngra esa xulq-atvor vositasi turadi. Chunki, inson yakka qolgan paytda ham muomala funksiyasini

o'zida saqlaydi. L.S. Vigotskiy qarashlaridan yana shu jihat ko'rindiki, muomala intereorizatsiya, ya'ni ichki nutq va ekstereorizatsiya, ya'ni tashqi nutq, muomala shakllarida namoyon bo'ladi. Bundan ko'rindiki, muomala tufayli shaxs ishtimoiylashuvi yuzaga keladi. Demak, L.S. Vigotskiy muomala, shaxslararo munosabatlar psixologiyasiga oid fikrlari g'oyat qimmatli, chunki unda biz shaxs ijtimoiylashuvi jarayoni uchun muhim asos sifatida muomalani ko'ramiz va shaxs shakllanishida bu jarayonning qimmati cheksiz ekanligini yanada anglaymiz (58). V.M. Bexterevning boy merosida shaxslararo munosabatlar muammosi, xususan, muomala mavzusi ijtimoiy-psixologik nazariya jihatidan o'rganilgandir. Uning qarashlarida insonlarning o'zaro ta'sir etishlari muhim muammo sifatida talqin etiladi. V.M. Bexterev ijtimoiy hayotda muomalaning rolini tavsiflab, uning funksiyalarini hamkorlik faoliyatini amalga oshirish mexanizmi sifatida ajratib talqin qiladi. Uning fikricha, shaxsning atrofdagilari bilan muomalasi qanchalik xilma-xil va boy bo'lsa, shunchalik uning taraqqiyoti muvaffaqiyatli amalga oshadi. V.M. Bexterev muomalaning ijtimoiy roli va funksiyasini tahlil etishda uning ko'rinishlari bo'lmish taqlid va ta'sirlanish ahamiyatiga to'xtaladi. Uning fikricha, taqlid bo'lmasa, shaxs ham yuzaga kelmas edi. Chunki, taqlid o'z materialini muomaladan olishini uqtiradi. Ta'sirlanish esa ijtimoiy jarayonlar namoyon bo'lishining omili tariqasida qaraladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

V.M. Bexterev muomalani shartli ravishda bevosita va bilvosita turlarga ham ajratadi. Bilvosita muomala tarkibiy qismlari sifatida xat, telefon, telegramma erkalash, urishish va boshqalarni olsa, bevosita muomala turiga nutqni kiritadi. Shuni ta'kidlash joizki, muomalani eksperimental o'rganish ishi V.M. Bexterev tomonidan amalga oshirilgandir. V.N. Myasishevning «Shaxsning munosabatlar psixologiyasi» konsepsiyasiga ko'ra shaxsning «dialogik» xususiyati, muomala xarakterining shaxsiy tajribasi va boshqa odamlar bilan o'zaro munosabat mahsuli safatida namoyon bo'ladi. Shu tufayli shaxsda qiziqish darajasi, emotsiya kuchi, xohish, ehtiyoj, ijtimoiy yo'nalganlik kabi shaxsni harakatlantiruvchi ichki kuchi tarkib topadi va bu uning

kechinmalari, xulqida, harakatida ifodalanadi. V.N. Myasishevning shaxslararo munosabatlar psixologiyasiga oid asarlarining tahlilidan ko'rindiki, muomala jarayoni shaxsning xususiyatlari, xarakteri, mayli, qobiliyatiga ta'sir etishdangina rivojlanmasdan, balki muloqotda ishtirok etuvchilarning psixik jarayonlari bilan ham bog'liqligida namoyon bo'lar ekan. Shuning uchun, V.N. Myasishev ishlarining alohida tomoni muomala, uning psixologik tuzilmasi bilan muloqotda ishtirok etuvchilarni psixik jarayonlari orasidagi munosabat xususiyatlarini ochib berilishida yaqqol ko'rindi. G.M. Andreyeva «Ijtimoiy psixologiya» kitobida shaxslararo munosabatlarda yuzaga keladigan 3 xil vazifalar va murakkab jarayonlar tuzilmasini taklif etadi.

1. Muloqotning kommunikativ tomoni, ya'ni o'zaro munosabat yoki muloqotga kirishuvchilarning o'rtasida ma'lumotlar almashinuvi jarayoni sifatida;
2. Muloqotning interaktiv tomoni, ya'ni muloqotga kirishuvchilarning xulq-atvorlariga ta'sir jarayoni sifatida;
3. Muloqotning perceptiv tomoni, ya'ni muloqotga kirishuvchilarning bir-birlarini idrok etishlari va tushunchalari bilan bog'liq jarayon sifatida. O'zaro munosabatlarda muloqotning psixologik jihatdan murakkab ekanligini B.F. Parigin shunday yozadi: «Muloqot shunchalik ko'p qirrali jarayonki, unga bir vaqtning o'zida quyidagilar kiradi:
 - A) individlarning o'zaro ta'siri jarayoni;
 - B) individlar o'rtasida axborot almashunuvi jarayoni;
 - V) bir shaxsning boshqa shaxsga munosabat jarayoni;
 - G) bir kishining boshqalarga ta'sir ko'rsatish jarayoni;
 - D) bir-biriga hamdardlik bildirish imkoniyati; shaxslarning bir-birini tushunish jarayoni».

Demak, shaxslararo munosabatlar, ya'ni muloqot jarayoni odamlar amalga oshiradigan faoliyatlar orasida eng murakkabligi va ko'p qirraliligi bilan xarakterlanar ekan, ijtimoiy psixologiya fanida olib borilgan jahon psixologlarining juda ko'p tadqiqotlari shu fenomenni shaxs uchun ham zarur, ham oddiy, ham ta'sirchan deb qaraydilar.

XULOSA

Demak, juda ko'p olimlarning ishlarini ko'rib chiqish orqali, oila maskani va u bilan bog'liq muammolarni ilmiy tadqiqq etilganligini, oila masalari har bir millat uchun nihoyatda muhim masala ekanligidan dalolat berishini kuzatdik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Kurbonova G. A. Oiladagi shaxslararo munosabarlarning farzand ijTimoiy persepsiyasiga san'at orqali Ta'sir etishning muhim jihatlari. Monografiya. "Musiqa" nashriyoti. Toshkent 2016y.
2. Олимов Л.Я., Махмудова З.М. Стрессли вазиятларда психологик химоя механизmlари ва копинг хулк-атвор намоён булишининг ижтимоий психологик хусусиятлари: стрессли вазиятларда психологик химоя механизmlари. Psixologiya ilmiy журнали. 2020 yil, 4 son 109-115 b.
3. Elov Z.S. Axmedova A.M. Maktabgacha yoshdagи bolalarda uchraydigan nutq buzilishlari va ularni yuzaga keltiruvchi sabablarninig bola ruhiyatiga psixologik ta'siri. respublika ko'p tarmoqli ilmiy tadqiqotlar sammiti. 02/2022. 234-237.
4. Sharifova M.Z. Elov Z.S. Priorities of psychological services in preschool educational organizations. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, Volume 3, Issue 3, Mar., 2022. 900-904